



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AGRAR SOHANI STANDARTLASHTIRISHNING JAHON TAJRIBASI

*Xolmuratova Go'zal Muradovna -
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti
Milliy tadqiqot universiteti doktoranti*

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss4/a62

Annotatsiya. Qishloq xo'jaligi – O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri. 2022-yilda qishloq xo'jaligining O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 28,4 foizni tashkil qildi (bu va boshqa joylarda, agar boshqa ilova keltirilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari). Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida agrar sohani standartlashtirishning jahon tajribasi keng yoritildi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi sektori, iqtisodiyot, fermer xo'jaliklari, agrar sektor, ishlab chiqarish, eksport, eksportni boshqarish, erkin bozor, davlat xaridlari, baho.

МИРОВОЙ ОПЫТ СТАНДАРТИЗАЦИИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО ХОЗЯЙСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

*Холмуратова Гузаль Мурадовна -
Ташкентский институт инженеров ирригации и
механизации сельского хозяйства,
Докторант Национально исследовательского университета*

Аннотация. Сельское хозяйство является одной из ведущих отраслей экономики Узбекистана. В 2022 году доля сельского хозяйства в валовом внутреннем продукте Узбекистана составила 28,4 процента (данные Госкомстата Республики Узбекистан в этом и других местах, если не указано иное). В данной статье широко освещался мировой опыт стандартизации агропромышленного комплекса в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: аграрный сектор, экономика, фермерские хозяйства, аграрный сектор, производство, экспорт, управление экспортом, свободный рынок, государственные закупки, цена.

WORLD EXPERIENCE OF STANDARDIZATION OF THE AGRICULTURAL SECTOR IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

*Kholmuratova Guzal Muradovna -
Tashkent Institute of Irrigation and
Agricultural Mechanization Engineers,
National Research University, PhD student*

Abstract. Agriculture is one of the leading sectors of the economy of Uzbekistan. In 2022, the share of agriculture in the gross domestic product of Uzbekistan was 28.4 percent (data of the State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan in this and other places, unless otherwise indicated). In this article, the global experience of standardization of the agricultural sector in the Republic of Uzbekistan was widely covered.

Key words: agricultural sector, economy, farms, agrarian sector, production, export, export management, free market, public procurement, price.

Kirish. Ichayotgan suvimizdan tortib egnimizdagi libosimizgacha, yashab turgan xonadonimiz va boshqarayotgan avtomobilimizgacha – barchasining talab va o'lchovlari bor. Bu talablar texnik jihatdan tartibga solinib, standartlashtirish, sertifikatlash va metrologiya masalalari alohida tizim sifatida rivojlandi. Bugungi kunga kelib, sohani takomillashtirishda jahon tajribasidan foydalanilmoqda.

Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar ISO va MEQ ta'rifiga muvofiq, O'zbekiston davlat standarti (O'z DSt ISO/ IEC 2:207) sifatida qabul qilingan standartlashtirish "...muayyan sohada tartibga solishning maqbul darajasiga erishishga qaratilgan faoliyat"dir. Shu ma'noda standartlashtirish tizimining o'zi ham, shuningdek, konstruktorlik hujjatlari, mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish,

muvofiqlikni baholash, texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlash, o'lchovlar yagonaligini ta'minlash, putur yetkazmaydigan nazorat, mahsulotni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga qo'yish, akkreditatsiyadan o'tkazish, texnik jihatdan tartibga solish, mahsulotni sinash, sifat, xizmatlar, atrof-muhit muhofazasi, favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik, texnikaning puxtaligi kabi standartlashtirishga tayanadigan boshqa tizimlar ham "muayyan soha"lar bo'lib xizmat qiladi.

Standartlar negizida shakllantirilgan va ishlayotgan mazkur tizimlarni umumiy "tarmoqlararo standartlashtirish tizimlari" nomi birlashtiradi. O'zbekistonda shakllantirilgan tizimlarga "O'z" abreviaturasi qo'shiladi. Masalan, O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi (O'zSDT), O'zbekiston

texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi (O'zTTDT), O'zbekiston sifat tizimi (O'zST) kabi. O'z navbatida, O'zbekiston tarmoqlararo standartlashtirish tizimlari O'zTST shaklida belgilanadi.

Qishloq xo'jaligini standartlashtirish markazi 2018-yilda "Qishloq va suv xo'jaligida standartlashtirish markazi" DUK negizida tashkil etilgan. Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi va sifati bo'yicha texnik jihatdan tartibga solish doirasidagi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishni muvofiqlashtiradi hamda muvofiqlikni baholashni amalga oshiradi. Shuningdek, quyidagilarni amalga oshiradi:

– ilg'or xalqaro amaliyotlarga muvofiq, qishloq xo'jaligi va mahsulot ishlab chiqarishning yangi yo'nalishlarini rivojlantirish, ushbu soha tarmoqlarida standartlashtirish, sinash va sertifikatlashtirish tizimlarini takomillashtirish;

– respublikamizda organik qishloq xo'jaligi va qayta ishlangan organik oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha olingan sertifikatlar, mahsulot turlari, mahsulot hajmi, yer maydoni ro'yxatini olib borish;

– qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xomashyolarning sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash uchun laboratoriya sinovlarini o'tkazish va muvofiqlik sertifikatlarini berish;

– xalqaro amaliyotga muvofiq, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning zamonaviy tizimlari, maqbul qishloq xo'jaligi amaliyoti va organik ishlab chiqarish tizimlarini keng joriy qilish.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi "Qishloq xo'jaligini standartlashtirish" hamda "Qishloq xo'jaligi texnika va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash" markazlari Latviya Respublikasining "Sertifikatlash va sinash markazi" bilan hamkorlik qilish to'g'risida bitim imzoladi.

Hujjatda hamkorlikni kuchaytirish, organik qishloq xo'jaligi va qayta ishlash bo'yicha korxonalarni baholash tizimini rivojlantirish yo'lida xizmat qilish, shuningdek, qishloq xo'jaligi texnikasi, mashina-agrouskunalarini sinash jarayonlari hamda ish muhiti parametrlarini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish masalalari ko'zda tutilgan.

"Yaqinda Latviya Sertifikatlash va sinash markazi 110 yoshga to'ldi. Biz o'zbekistonlik hamkasblar bilan 2014-yildan buyon do'stona munosabatlarni o'rnatganmiz va bugun ushbu aloqalarni hujjatlar orqali yanada mustahkamladik. Memorandumni imzolash jarayonida ikki mamlakat hukumat vakillari ishtirok etishdi. Biz o'zbekistonlik hamkasblarimiz bilan to'plangan tajriba va bilimlarimizni baham ko'rmoqchimiz, hamkorlik samarali va qiziqarli bo'lishiga aminmiz", – deya ta'kidladi Latviya Respublikasi Sertifikatlash va sinash markazi rahbari Antanas Makarevichius.

Memorandum doirasida tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish, hamkorlikda ishchi guruhlarini shakllantirish, sertifikatlash bo'yicha laboratoriya-

lar va organlar negizida, xususan, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi "Qishloq xo'jaligini standartlashtirish" hamda "Qishloq xo'jaligi texnika va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash" markazlarida organik mahsulotlarni sertifikatlashni takomillashtirish rejalashtirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi vaqtda hech bir mutaxassis yo'qki, u o'z ish faoliyati mobaynida o'lchashlarni qo'llamasa. Uning oldida turgan muammo qanchalik murakkab bo'lsa, o'lchashlarning ahamiyati shunchalik salmoqli bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirda inson faoliyatining 3000 dan ortiq sohasi aynan o'lchashlar bilan chambarchas bog'liq ekan. Har bir ishda muayyan tartibqoidalar bo'lgani kabi o'lchashlarning ham o'ziga xos bo'lgan qoidalari, usullari va uslubiyatlari mavjud bo'lib, bularning bari o'zining me'yoriy hujjatlari asosida biror-bir tizimga keltiriladi.

Abu Rayhon Beruniy o'lchashlar va ilm haqida quyidagi fikrlarni aytgan: "Har bir kuzatuvchi (olim) diqqat bilan o'lchasin, hamisha o'z ishlaridan qoniqmasin, o'z ishlarini qayta-qayta tekshirib tursin, mumkin qadar kamroq g'ururlansin, tobora tirishqoqlik bilan ishlasin va mehnatda hech mahal zerikmasin"; "Agar inson izlanuvchan va aniqlikni talab qiluvchi bo'lsa, ilm tarmoqlaridan biror-bir tarmoqning to'la ma'nosi haqida so'zlay olishi mumkin"; "... dalil va aniqlik haqiqiy ilmga xosdir" [1].

Mashhur rus olimi D.I.Mendeleyev o'lchash haqida shunday degan edi: "... har bir fan, eng avvalo, o'lchash bilan boshlanadi", "Bilish uchun o'lchash kerak, o'lchash uchun esa o'lchovni bilish kerak". Shuning uchun ham asosiy maqsad faqat o'lchash emas, uning o'lchovini ham bilish zarurligini ko'rsatib o'tgan [2].

D.Mendeleyevning tashabbusi bilan Rossiya-da birinchi bor "Og'irlik va o'lchovlar palatasi" tashkil etilgan va bu Palataning asosida Butun Rossiya metrologiya instituti tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda ushbu ilmiy markaz uning nomi bilan yuritiladi. Olimning yana bir ulkan xizmati shundan iboratki, u Rossiyada metrik tizimni tatbiq etishni asoslab, uni tashkiliy jihatdan tayyorlab bergan.

Galileo Galileyning "O'lchab bo'ladiganini o'lchang, mumkin bo'lmaganiga imkoniyat yarating" degan bashoratlari o'lchashlarning ahamiyatini yanada yuqoriga ko'targan. Antropometrik o'lchashlarning vujudga kelishi: o'lchashlarga bo'lgan ehtiyoj qadim zamonlardayoq paydo bo'lgan. Inson kundalik hayotida har xil kattaliklarni: masofalar, yer maydonlarining yuzalari, jismlarning o'lchamlari, massalari, vaqt va hokazolarni, bu jarayonlarning yuzaga kelish sabablari, manbalarini bilmasdan, o'zining sezgisi va tajribasi asosida o'lchay boshlagan [3].

Ibn Sinoning eng mashhur asarlaridan biri "Tib qonunlari" hozirgi kunda ham ming-minglab mutaxassislarning qo'llanmasi bo'lib kelmoqda. Turli dori-darmon va malhamlarni tayyorlash

uchun tavsiya etilgan massa va hajm birliklari uzoq muddatlar davomida g'arb davlatlarida ham foydalanib kelingan [4].

Markaziy Osiyoda ham o'lchovlar va ularning turg'unligini saqlash, o'lchash qoidalariga qat'iy rioya etish masalalariga jiddiy e'tibor berilgan va buning nazorati eng yuqori amaldorlar tomonidan olib borilgan. Asta-sekin xalqaro, davlatlararo o'lchash birliklari ta'sis etila boshlagan. Fan va texnikaning rivojlanishi har xil kattaliklarning o'lchamlarini muayyan o'lchovlarga qiyoslab kiritishni taqozo eta boshladi. Ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi o'lchash vositalari va usullarini mukammallashtirishni talab eta boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'z asarida shunday ta'kidlab o'tgan: "Mahsulotni standartlash va sertifikatsiyalash xalqaro tizimiga izchillik bilan o'tishni tashkil qilish O'zbekiston iqtisodiyotini jahon iqtisodiy hamjamiyatiga keng ko'lamda uyg'unlashtirish uchun iqtisodiy hamda tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish imkonini beradi" [5].

Zamonaviy metrologiya uchta asosiy bo'limdan iborat: nazariy, qonunlashtiruvchi va amaliy metrologiya. Yuqoridagi atamalarni quyidagicha ta'riflash mumkin: "Amaliy metrologiya – nazariy metrologiya ishlanmalari va qonunlashtiruvchi metrologiya qoidalarining amalda qo'llanishi masalalari bilan shug'ullanuvchi metrologiya bo'limi. Nazariy metrologiya metrologiyaning fundamental asoslarini ishlab chiqish predmeti bo'lgan metrologiya bo'limi bo'lib, ba'zi hollarda "fundamental metrologiya" deb ham yuritiladi [6].

Standartlashtirish fan sifatida standartlashtirish usuli va vositalari to'g'risida aniqlik kiritish, standartlashtirish bo'yicha qonunchilik faoliyatni shakllantirish va umumlashtirish maqsadidagi alohida yo'nalishdir. "Sertifikatlashtirish" atamasini uslubiy jihatdan tizimli sifatda yanada aniqroq va universal bo'lgan "muvofiqlikni baholash" atamasi bilan ifodalash mumkin. Uslubiy jihatdan qaralgan-


da sertifikatlash muvofiqlikni tasdiqlashning uchinchi tomondan amalga oshiriladigan asosiy faoliyatidir [7].

Sifat esa bu konstruksiyani yaxlitligicha unga yangi tizimli hissasini qo'shib, hajmiy to'ldiruvchisi sifatida aks etadi. Shuningdek, bundan shuni anglash mumkinki, bu elementlardan birini boshqarib, yakuniy mahsulotga ta'sir etuvchi omillar sifatida uning sifatini boshqarishimiz mumkin. O'z navbatida, mahsulot sifatini boshqarish jarayoni, ushbu mahsulotni ishlab chiqarishni, vaholanki, ixtiyoriy obyektini, ya'ni jarayon, ish va xizmatlar va shu kabilar bo'lsa ham boshqaruvning muhim jihati hisoblanadi [8].

Tadqiqot metodologiyasi. Agrar sohani standartlashtirish bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, davlat va xalqaro standartlarni qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlili va natijalar. "O'zbekiston qishloq xo'jaligi davlat tomonidan eng ko'p boshqariladigan iqtisodiyot tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Katta yirik qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari – dehqonlarning mulk huquqi juda zaif himoyalangan. Ularning faoliyatini tartibga solish usullari aslida sovet o'tmishidan olingan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'p turlari, ishlab chiqarish resurslari va sektor uchun xizmatlar ishlab chiqilmagan. Qishloq xo'jaligi sektori islohotga muhtoj bo'lib qolmoqda", – deydi iqtisodchi Yuliy Yusupovning CABAR.asia" gazetasida chop etilgan maqolasida.

Qishloq xo'jaligi – O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri. 2022-yilda qishloq xo'jaligining O'zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 28,4 foizni tashkil qildi (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari) [9].



1-rasm. O'zbekiston YaIMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, 2022-yilda

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

“O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 2022-yilda 5,7 foizga o‘shirib, 888,34 trln. so‘mni (80,4 mlrd. dollarga yaqin) tashkil etdi. Aholi jon boshiga YaIM hajmi esa 2255 dollargacha oshdi”, – deya xabar berdi Statistika agentligi.

Savdo, turar joy va oziq-ovqat xizmatlari sohasi 9,3 foizga, transport, axborotlashtirish va aloqa sohasi 14,7 foizga o‘shirildi. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida (3,6 %) nisbatan past o‘shirish sur‘atlari kuzatildi.

Aholi jon boshiga YaIM real ko‘rinishda 3,5 foizga – 21,15 mln. so‘mdan 24,91 mln. so‘mga (2254,9 dollar) o‘shirildi. Taqqoslash uchun: 2021-yilda 5,3 foizga, 2020-yilda – pandemiya yilida esa 0,1 foizga o‘shirish qayd etilgan.

2021-yil yozida Prezident Sh. Mirziyoyev 2026-yilga borib O‘zbekiston iqtisodiy o‘shirish sur‘atlarini 1,5 barobarga oshirish va YaIM hajmini kamida 100 mlrd. dollarga yetkazishni rejalashtirayotganini ta’kidlagan edi [10].


2021-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik

xo‘jaligida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi 183 518,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020-yil bilan taqqoslaganda, 4,0 %ga o‘shirildi. Kuzatilayotgan davrda respublika bo‘yicha YaIM (YaQQ) tarkibida mazkur tarmoqning ulushi 26,9 %ga yetdi va o‘tgan yilga nisbatan 0,2 foiz punktga kamaydi.

2022-yilning yanvar-iyun yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 2,7 % (2021-yilning yanvar-iyun oylarida – 1,8 %, 2020-yilning yanvar-iyun oylarida – 2,4 %) darajasida ijobiy o‘shirish qayd etildi.

Ushbu ijobiy o‘shirish sur‘atlari chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning 2,0 % (2021-yilning yanvar-iyun oylarida – 4,1 %, 2020-yilning yanvar-iyun oylarida – 1,6 %)ga hamda dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning 3,8 % (2021-yilning yanvar-iyun oylarida – 1,4 %, 2020-yilning yanvar-iyun oylarida – 3,7 %)ga o‘shirishi bilan bog‘liq.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida natura shaklida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi va o‘shirish sur‘atlari quyidagicha bo‘lgan:



2-rasm. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o‘shirish sur‘atlari, 2022-yilda

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining eng ko‘p boshqariladigan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Katta yirik qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari, dehqonlarning mulk huquqi o‘ta himoyasiz, ularning faoliyatini tartibga solish usullari, “de fakto” sovet o‘tmishidan olingan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va ishlab chiqarish resurslari hamda sektor uchun xizmatlar bozori ishlab chiqilmagan.

Sektor radikal islohotga muhtoj, uning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

– ayrim ekinlar uchun yerni majburiy kvotalashni bekor qilish (agar davlat buyurtmasi saqlanib qolsa-da, fermerlarga ishlab chiqarish tarkibini optimallashtirish uchun yerlardan erkin foydalanish imkoniyati berilishi kerak);

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish bo‘yicha barcha ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish;

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar uchun resurslar va xizmatlar uchun erkin va raqobatbardosh bozorlarni shakllantirish va rivojlantirish;

– qishloq xo‘jaligi yerlarini xususiy mulkka egalik qilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda yer lizing huquqlarini mustahkamlash, mavjud lizing shartnomalarini himoya qilish.

Yuqoridagi islohotlarni amalga oshirish qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy ahvolini mustahkamlash, yerlardan samarali foydalanishni rag‘batlantirish va qishloq xo‘jaligi mahsu-

lotlarini diversifikatsiya qilish, shu jumladan, meva-sabzavot va yem-xashak ekinlarini ko'paytirish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining umumiy hajmini hamda agrar sektorning eksport salohiyatini oshirishga imkon beradi.

Globalashuv va oziq-ovqat mahsulotlariga talabning oshishi sharoitida yangi va quritilgan meva va sabzavotlarni yetishtirish imkoniyatiga ega bo'lgan Markaziy Osiyo mintaqasi an'anaviy bozorlarni diversifikatsiya qilish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yangi bozorlarini egallash bilan bog'liq murakkab muammolarni hal qilish yo'lida turibdi. Meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish mintaqa uchun ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega, chunki bu katta mehnat resurslarini jalb qilish imkonini beradi.

Ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini diversifikatsiyalash va yangi bozorlarni egallash bilan bog'liq islohotlarda asosiy o'rin xalqaro standartlar qabul qilish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning talablariga mos ravishda qayta yo'naltirilish hisoblanadi.

Xalqaro standartlar qatorida, birinchi navbatda, Yevropa, AQSh va Osiyoning taniqli jahon bozorlaridan talab qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining marketing va tijorat nazorati bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining (BMT EIK) tijorat standartlari alohida o'rinni egallaydi. Ta'kidlash joizki, so'nggi 3 yil ichida Markaziy Osiyo davlatlarining BMT EIK standartlarini joriy etish bo'yicha hamkorligi ma'lum darajaga yetdi.

Mazkur standartlarni mintaqadagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar o'rtasida keng targ'ib qilish hamda BMT EIK standartla-


rini ishlab chiqish, qabul qilish va qo'llashda ularning manfaatlarini himoyalash bo'yicha kelishilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida bir qator xalqaro tashkilotlar, davlat institutlari hamda biznes tashkilotlari tashabbusi bilan "Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga BMT EIK tijorat standartlarini joriy qilish bo'yicha" O'rta Osiyo mintaqaviy ishchi guruh tashkil etildi.

"O'zstandart" agentligi mutaxassislari ushbu ishchi guruhning ishlarida faol ishtirok etib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar, boshqa vazirlik va idoralar vakillari o'rtasida muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshirib kelmoqda.

Ushbu ishchi guruh doirasida qabul qilingan BMT EIK standartlariga muvofiq 2019-yilda:

piyoz, limon, xurmo, quritilgan o'riklarning sifat kamchiliklarini aniqlaydigan izohli ko'rgazmali e'lonlari mintaqaviy darajada ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Xalqaro standartlarni qo'llash va rivojlangan davlatlar milliy standartlaridan foydalanish mamlatimizda ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi "Standartlashtirish to'g'risida"gi qonunining 6-moddasiga muvofiq va texnologiya va uskunalar texnik darajasini hisobga olgan holda, standartlardan yanada samarali foydalanish uchun "O'zstandart" agentligi normativ hujjatlar fondida bugungi kunda 44000 dan ko'proq me'yoriy hujjatlar jamlangan. Ularning 8116 tasi xalqaro standartlar, 20393 tasi davlatlararo standartlar, 8679 tasi xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari, 1679 tasi O'zbekiston Respublikasi davlat standartlari, 168 tasi tarmoq standartlar, 4692 tasi texnik shartlar, 334 tasi korxonalar standartlari, 198 tasi rahbariy hujjatlarni tashkil qiladi [11].



3-rasm. Me'yoriy hujjatlarning toifalari bo'yicha taqsimlanishi

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Turli sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda ISO 9001, ISO 14001, ISO 22000 xalqaro standartlari asosida sifatni boshqarish tizimlari joriy etilmoqda. Jumladan, respublikamiz qishloq xo'

jaligi sohasi kesimida standartlarning qo'llanilishi tahlil qilinganda, turli sohalarda xalqaro standartlar talablariga muvofiq mahsulotlar ishlab chiqarilayotganligini quyidagi jadvalda kuzatishimiz mumkin.

Qishloq xo'jaligida standartlarning qo'llanilishi

Sohalarning nomlanishi	Standartlashtirish bo'yicha qo'llanilgan me'yoriy hujjatlar soni	Shu jumladan			Xalqaro standartlar bilan uyg'unlashgan
		Davlatlararo standartlar (GOST)	Davlat standarti (O'z Dst)	Texnik shartlar (Tsh)	
Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligi	112	99	13		2
Paxta	6	-	6		-
Chorvachilik	72	71	1		16
Tamaki	3	3	-		1
Meva, sabzavot, poliz	93	88	-	5	17
Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar	71	-	-	71	-
Tayyor sut	2	2	-	-	-
Baliqchilik	2	2	-	-	-
Tovuq tuxumi	1	-	1	-	-
Asalarichilik	7	7	-	-	-

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Standartlashtirish bo'yicha xalq xo'jaligini boshqarishning hamma sohalarida olib borilayotgan ishlarni birlashtirish uchun Davlat standartlashtirish tizimi (DST) ishlab chiqilgan. U o'zaro bog'langan qoida va tartiblar majmuasidan iborat bo'lib, standartlashtirishning maqsadi va vazifalarini, kategoriyalari va turlarini, ularni ishlab chiqish tartibini, tasdiqlash va joriy qilish hamda ularni joriy va amal qilishini aniqlaydi.

Xulosa va takliflar. Standartlashtirish fan, texnika va iqtisodiyot doirasidagi takrorlanuvchi masalalarning yechimini topish va ma'lum sohada ma'qul darajada tartiblashga yo'naltirish bilan bog'liq faoliyatdir. Standartlar ko'plab va seriyali ishlab chiqariladigan eng muhim mahsulotlar uchun belgilanadi. Standartlarda mashina, asbob, qurol, turli material va tip, xil, rusum, shakl, o'lchamlar, ularga nisbatan qo'yiladigan texnik talablar, shuningdek, sinash uslublari, joylash va saqlash, yo'lda tashish qoidalari belgilanadi. Standartlarda yagona o'lchov birliklari, belgilashlar, amaliy texnik atamalar va ta'riflar ham ko'rsatiladiki, bularsiz mahsulotning sifatini aniq belgilab bo'lmaydi. Har bir standartning raqami va tasdiqlagan yili bo'ladi. Masalan, jozlik va o'tkazishlarga doir asosiy ta'riflar standarti 1962-yilda tasdiqlangan bo'lsa, quyidagicha belgilanadi: GOST 7713-62. Bu yerda GOST Davlat standarti, chapdagi to'rt raqam (7713) standartning tartib raqamini, oxirgi ikki raqam (62) esa standartning tasdiqlanish yilini bildiradi.

Standartlashtirishdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat: fan va texnika taraqqiyotini tezlashtirish, jamiyatning ishlab chiqarish va mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va uning ma'qul darajasini ta'minlash, xalq xo'jaligi boshqaruvini takomillashtirish va chiqarilayotgan mahsulotning ma'qul nomenklaturasini o'rnatish, mahsulotni loyihalashtirish va ishlab chiqarish so-

hasidagi ixtisoslashtirishni rivojlantirish, shuningdek, ishlab chiqarish fondlaridan ratsional foydalanish, moddiy va mehnat resurslarini iqtisod qilish, sog'liqni saqlash va mehnat xavfsizligini ta'minlash, xalqaro iqtisodiy, texnik va madaniy hamkorlikni (tovarlarni eksport qilish) rivojlantirishdir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun standartlashtirish bo'yicha faoliyat quyidagi masalalarni hal qilishga yo'naltirilishi kerak:

1. Tayyor mahsulot sifatiga kompleks standartlashtirish asosida oxirgi mahsulot, xomashyo, materiallar, yarimtayyor mahsulotlar va butlovchi mahsulotlar sifati xususiyatlariga talablar qo'yish.

2. Mahsulot sifatining yagona ko'rsatkichlar tizimi, uni sinash va nazorat qilish uslublari va vositalari hamda mahsulotning kerakli darajadagi ishonchliligi, uning mohiyati va foydalanish sharoitini hisobga olgan holda ishlab chiqish.

3. Mahsulot qulay sifatini ta'minlash va rusumlar hamda o'lchamlar turlari xilma-xilligining ortiqchaligini yo'qotish maqsadida mahsulotni loyihalash va ishlab chiqarishda me'yoriy talablar va uslublarni o'rnatish.

4. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, o'lchash, aniqlik darajasini ko'tarish, mahsulotdan unumli foydalanish va ta'mirlashning muhim sharoiti sifatida sanoat mahsuloti unifikatsiyasini rivojlantirish.

5. Mamlakatda o'lchash birligi va aniqligini ta'minlash, yuqori aniqlikdagi o'lchash uslublari va vositalarini takomillashtirish.

6. Hujjatlarning yagona tizimini hamda fan va texnikaning muhim sohalarida yagona atamalar va belgilashlarni o'rnatish.

7. Mehnat xavfsizligi, tabiat muhofazasi va tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash sohasida standartlar tizimlarini o'rnatish.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Rayhon Beruniy. *Geodeziya. Tanlangan asarlar, III jild, 2018-yil.*
2. Дмитрий Менделеев. *Заветные мысли Дмитрия Менделеева. ISBN: 978-5-7533. Год издания: 2010. Издательство: Сретенского монастыря.*
3. Галилео Галилей. *Диалог о двух главнейших системах мира. ISBN: 978-5-386-10676-8. Год издания: 2018. Издательство: АСТ.*
4. Abu Ali Ibn Sino. *Tib qonunlari. 1, 2, 3, 4, 5-kitoblar. "Sharq" nashriyoti, 2020-yil.*
5. Karimov I.A. *O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992. 40-bet.*
6. Hakimov O.Sh. *Metrologiya, atamalar va ta'riflar, 2008.*
7. Ismatullayev P.R., Matyokubova P.M., Turayev Sh.A. *Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. "LESSON PRESS" nashriyoti, 2015.*
8. Qurbanov A.A. *Metrologiya va standartlashtirish. – T.: O'zbekiston, 2007.*
9. *2022-yil yakunlari bo'yicha Davlat statistika qo'mitasining kengaytirilgan Hay'at yig'ilishi, 25.01.2023. (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari).*
10. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 09.09.2021-yildagi ma'ruzasi.*
11. *O'zbekiston Respublikasi "Standartlashtirish to'g'risida"gi qonuni. 800-son. 03.11.2022.*
12. *GOST 1.3-2002 Davlatlararo standartlashtirish tizimi. Xalqaro va mintaqaviy standartlarni davlatlararo standartlar sifatida qabul qilish qoidalari va usullari.*
13. *ISO/IEC direktivalari, 1-qism: 2004 Texnik ish tartib-qoidalari.*
14. *ISO/IEC direktivalari, 2-qism: 2004 Xalqaro standartlarni qurish va ishlab chiqish qoidalari.*
15. *ISO/IEC Guide 2-2004 Standartlashtirish va tegishli faoliyat. Umumiy lug'at.*
16. *ISO/IEC Guide 21: 1999 Xalqaro standartlarni mintaqaviy yoki milliy standartlar sifatida qabul qilish.*
17. *ISO/IEC Guide 21-1: 2005 Xalqaro standartlar va boshqa xalqaro hujjatlarning mintaqaviy va milliy qabul qilinishi. 1-qism. Xalqaro standartlarni qabul qilish.*